



Tadqiqot **uz**

# ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих сағифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**No22**  
30 ноябрь

[conferences.uz](http://conferences.uz)

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
23-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
22-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-23**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
22-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-23**

**ТОШКЕНТ-2020**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 22-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ**

<b>1. Eshmurodov Soxibjon Boburjon o'g'li, Murtazinova Asolat Oromiddinovna</b> ORGANIK O'G'ITLARNING TUPROQ OZIQ REJIMIGA TA'SIRI .....	7
<b>2. Shomirzaev Otabek Quvonovich</b> EPIFITOTIK FAVQULODDA VAZIYATLAR VA ULARDAN MUHOFAZALANISH.....	9
<b>3. Xoliqulova Sanamjon Baxtiyor qizi, Jurayeva Lola Chori qizi, Bo'riyev Elyor Musulmon o'g'li</b> SURXONDARYODA TAQIRLI –O'TLOQI TUPROQLARNING AGROKIMYOVİY TAVSIFI VA MORFOLOGİK TUZULISHI .....	11



## АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ

### ORGANIK O'G'ITLARNING TUPROQ OZIQ REJIMIGA TA'SIRI

*Eshmurodov Soxibjon Boburjon o'g'li.  
Termiz davlat universiteti. Tabiiy fanlar  
fakulteti Tuproqshunoslik  
ta'lif yo'naliishi 4- kurs talabasi.  
Телефон:+99893-796-75-74  
normurodov.oibek@mail.ru  
Murtazinova Asolat Oromiddinovna  
Toshkent Davlat Agrar Universiteti  
Termiz filiali.4- kurs talabasi.  
Телефон:+99893-796-75-74  
normurodov.oibek@mail.ru*

**Annotatsiya.** Maqolada Taqir-o'tloqi tuproqlarda paxta yetishtirishda organik o'g'itlarni, jumladan tovuq go'ngi va yarim chirigan qoramol go'ngini 30 t/ga me'yorida shudgor ostiga qo'llash agronomik va iqtisodiy jihatdan yaxshi samara berilishi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** azot, fosfor, g'o'za o'suv davrida, go'ngi tuproqdag'i, taqir-o'tloqi tuproqlarida, organik o'g'it sifatida.

G'o'za o'simligi xayotida azot, fosfor va kaly elementlari va mahalliy o'g'itlarning o'rni benihoya kattadir. Yetishtirilayotgan paxta hosilining qariyb yarmi ma'dan o'g'itlar hisobiga to'g'ri keladi. Shundan kelib chiqib qishloq xo'jaligida ma'dan o'g'itlar g'o'zadan yuqori, ertaki hosil yetishtirish uchun kimyoviy moddalar qo'llanilmoqda.

Natijada atrof-muhit zararlanishi bilan birga yetishtirilayotgan paxta xom ashyosi tarkibida xam ma'lum miqdorda qolib, uning sifatiga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun ham paxta hosilini yetishtirishda ekologik toza texnologiyani ishlab chiqish shu kunning talablaridan biri hisoblanadi.

Tuproqda harakatchan oziq moddalarning bo'lishi o'simliklarning yaxshi o'sib rivojlanishini ta'minlaydi. Shunday qilib, tuproqqa organik o'g'itlarni qo'llash tuproqdag'i nitratli va ammoniyli azot miqdorini butun g'o'za o'suv davrida ishonarli oshiradi. Umuman olganda, tajriba dalasi tuprog'ida ammoniy shakldagi azot miqdoriga nisbatan nitrat shakldagi azot miqdori sezilarli yuqori bo'lishi aniqlandi. Bu esa tuproqda ammonifikasiyaga nisbatan nitrifikasiya jarayoni kuchli borishini ko'rsatadi. Chunki tuproqda ammoniyning miqdori juda katta konsentrasiyaga yetsa, u tirik organizmlar, jumladan miroorganizmlar uchun xavfli hisoblanadi.

Demak, tuproqda mineral azot miqdorining ta'biiy ravishda o'zgarib borishi ammoniyli va nitratli azot dinamikasi bilan bir xil va ular o'zgarish qonuniyatlariga bog'liq bo'ladi.

Mineral o'g'itlarning ta'siri qisqa vaqt davom etgan bo'lsa, organik o'g'itlar mineral azot miqdoriga uzoq muddatli ta'sirga ega bo'ldi. Bu holat ham ammoniyli azot, ham nitratli azot hisobiga birday amalga oshdi. Masalan, nazoratda tuproqda mineral azot miqdori 1-aprel sanasida 27,9 mg/kg tuproqda, 1-iyunda 37,6 mg/kg tuproqda, 1-iyulda 34,0 mg/kg tuproqda, 1-sentyabrda 39,6 mg/kg tuproqda bo'lgan bo'lsa bu ko'rsatkich 30 tga tovuq go'ngi variantida yuqoridagiga mos ravishda 57,3; 68,1; 62,2; 58,6 mg/kg tuproqda, 30 t/ga yarim chirigan qoramol go'ngi variantida tegishlicha 50,1; 53,6; 49,6; 49,5 mg/kg tuproqda, tuproqda bo'lishi ma'lum bo'ldi (1-jadval).

Demak, organik o'g'itlarni jumladan yarim chirigan qoramol go'ngi hamda tovuq go'ngini qo'llash tuproqdag'i mineral azot miqdorini sezilarli oshiradi. Umuman olganda, tovuq go'ngi va yarim chirigan qoramol go'ngi tuproqning azot rejimiga sezilarli ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni uni kuchaytiradi. Bunda qoramol go'ngiga nisbatan tovuq go'ngi kuchli ta'sir ko'rsatadi.



Tuproqdag'i yana muhim oziq moddalardan biri harakatchan fosfor hisoblanadi. Tuproqning fosfor rejimi tuproqning unumdorligini belgilashda ham muhim rol uo'naydi. Tuproqda fosfatlarning harakatchan holga o'tishi juda sekin kechadi. Fosfatlar tuproqda azotga nisbatan kam harakatchan bo'ladi.

Tuproqda o'g'itsiz, nazorat variantida harakatchan fosfor miqdori erta bahordan yoz oylariga qarab ortib bordi, keyin g'o'za o'suv javrining avj olishi bilan harakatchan fosfatlar miqdori kamaydi, o'suv davri oxirida ular yana ortdi. Tovuq go'ngi qo'llash natijasida harakatchan fosfor miqdori nazoratga nisbatan sezilarli ortdi. Bu ayniqsa vegitasiya davrining oxirlariga kelib yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi.

Yarim chirigan qoramol go'ngi tuproqdag'i harakatchan fosfor miqdoriga ta'siri sezilarli bo'ldi. Masalan, o'g'itsiz nazoratda tuproqda harakatchan fosfor miqdori 1-aprelda 15,3 mg/kg tuproqda, 1-iyunda 21,5 mg/kg tuproqda, 1-iyulda 17,0 mg/kg tuproqda 1-sentyabrda 22,1 mg/kg tuproqda bo'lgan bo'lsa, 30 t/ga tovuq go'ngi variantida bu ko'rsatkich yuqoridagiga mos ravishda 25,8; 30,4; 27,8; 25,5 mg/kg tuproqda, 30 t/ga yarim chirigan qoramol go'ngi qo'llanilgan variantda tegishlicha 20,6; 25,2; 23,0; 25,0 mg/kg tuproqda ekanligi kayd etildi

Shunday qilib organik o'g'itlar jumladan tovuq va qoramol go'ngi tuproqda harakatchagn fosfor miqdorini sezilarli oshiradi. Bu esa tuproq fosfat rejimini yaxshilashiga olib keladi. Bulardan tashqari go'ng fosfatlarning eruvchanligini oshiradi. Bu g'o'zani fosforli oziqlanishini maqbullashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Go'ng birinchi navbatda eskidan haydalib, ko'p yillardan beri paxta yetishtirib kelinayotgan maydonlarga 20-30 t/ga solinadi. Tayyor go'ng faqat yerni haydash oldidan solinishi kerak. U yer betida yotib qolsa tarkibidagi azot, uglerod havoga uchib ketib, foydasiz bo'lib qoladi. Termiz tumani taqir-o'tloqi tuproqlarida paxta yetishtirishda organik o'g'itlarni, jumladan tovuq go'ngi va yarim chirigan qoramol go'ngini 30 t/ga me'yorida shudgor ostiga qo'llash agronomik va iqtisodiy jihatdan yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Malikov I. O'g'itlarni birga qo'shib solish // J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 1981. №3. B.11
2. Niyozaliyev B., Mirzayev L.- Tengi yo'q o'g'it.// O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2007, №10. 9 b.



## EPIFITOTIK FAVQULODDA VAZIYATLAR VA ULARDAN MUHOFAZALANISH

*Shomirzaev Otabek Quvonovich*

*Sirdaryo viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi*  
*Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchisi.*

*Telefon raqami: +998972757986*

*Elektron pochta manzili: shomirzayevfvb@gmail.com*

**Anotatsiya:** Respublikamizning tabiiy va xo'jalik-iqtisodiy sharoitlari ushbu kasallikning har tomoniga tarqalishiga yo'l qo'ymaydigan, aniq joy, xo'jalik, aholi yashash joyida qishloq xo'jaligi o'simliklari o'rtaida yuqumli kasallikning bir vaqtda tarqalishi yuzaga keladi.

**Kalit so'zlar:** Zararkunanda, Fitopatogen, Epifitotiya, Enfitotiya, Panfitotiya, Bug'doyning zang kasalligi, Kartoshka fitoftorozi, Kolorado qo'ng'izi, Kartoshka parvonasi, Chigirtka, Termitlar.

O'simlik kasalligi qo'zg'atuvchisi. Moddalar almashinuviga halokatli ta'sir qiluvchi biologik faol modda ajratib, ildiz tizimini zararlaydi, to'yimli moddalar kirishiga halaqit beradi. O'simliklarning fitopatogenga ta'sirchanligi navlarning barqarorligi, zararlanish vaqt va ob-havoga bog'liq. O'chimliklar kasalliklari va zararkunandalarning tarqalishi epifitotiya, enfitotiya va panfitotiya tarzida yuz beradi.

Zararkunanda – qishloq xo'jaligi o'simliklariga va ularning hosiliga zarar yetkazadigan jonivorlar va hasharotlar.

Epifitotiya – qishloq xo'jaligi ekinlarining ommaviy nobud bo'lishi va hosildorlikning pasayishi bilan kechuvchi vaqt va fazoda rivojlanuvchi ommaviy kasallik va (yoki) o'simlik zararkunandalari sonining keskin ko'payishi.

Enfitotiya - tabiiy va xo'jalik-iqtisodiy sharoitlari ushbu kasallikning har tomoniga tarqalishiga yo'l qo'ymaydigan, aniq joy, xo'jalik, aholi yashash joyida qishloq xo'jaligi o'simliklari o'rtaida yuqumli kasallikning bir vaqtda tarqalishi.

Panfitotiya – bir necha mamlakat yoki qit'a hududida o'simliklarning ommaviy kasallanishi va qishloq xo'jaligi o'simliklari zararkunandalaring keskin ko'payishi.

O'simliklar kasalliklarining tasnifi quyidagicha amalga oshiriladi: joy va o'simlik rivojlanish fazasi (urug'lik, unib chiqqan urug', ko'chat, yetilgan o'simlik kasalliklari); zararlanadigan o'simlik, yuzaga kelishi (yuqumli va yuqumli emas). O'simliklardagi barcha patalogik o'zgarishlar turli-tuman shakkarda namoyon bo'ladi va chirish, mumifikatsiya, so'lish, boshqa turga aylanish (nekroz), nalyot, o'simta kabi asosiy turlarga bo'linadi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi o'simliklarining 68000 dan ortiq kasalliklari va zararkunandalari aniqlangan. Eng xavfli kasalliklar va zararkunandalarni ko'rib chiqamiz.

Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori hosil, sifatlari mahsulot olish uchun eng avvalo, zararkunanda va begona o'tlarga qarshi o'z vaqtida kurash olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Birgina o'rgimchakkana g'o'zaga may-iyun oyida tushsa, hosilning 45-60%, iyulda tushsa 30%, avgust oyida tushsa 20% ini boy berilishi ilmiy isbotlangan.

2003 yili mavjud maydonlarning 103,7 ming getktari kuzgi tunlam,

393,6 ming getktari o'rgimchakkana va 327,8 ming getktari ko'sak qurti bilan zararlandi.

Respublikamizda g'o'za zararkunandalari qarshi kurash bo'yicha boy tajriba to'plangan, 800 dan ortiq trixogramma, brakon va oltinko'z ko'paytirish biolaboratoriyalari mavjud.

G'o'zada trips va shira zararining oldini olish, o'simlikning chidamliligin oshirish uchun azot, fosfor va kaliyli o'g'itlar aralashmasini yoki ularning alohida bir turining 1,5-2,5% li suvli eritmasini ishlatish lozim.

Kolorado qo'ng'izi - zararkunanda. Uning o'lchами 9-11 mm. Bahorda tuproq ostidan chiqadi. Urg'ochisi yaltiroq, zarg'aldoq cho'zinchoq-ovalsimon, uzunligi 2-4 mm. li tuxum qo'yadi. Tuxumlarni kartoshka bargining orqa tomoniga 18-20 tadan birlashtiradi. G'umbaklar 24 kun rivojlanadi. Bir yil davomida 1 tadan

4 tagacha avlod qoldiradi. Natijada hosildorlik keskin kamayib ketadi.

Chigirtka qishloq xo'jalik mahsulotlarining o'ta xavfli zararkunandasini hisoblanadi.

Chigirkalarning 20 mingta turi mavjud. Ulardan 50 dan ziyod turi xavfli hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda chigirkalarning 250 turi uchraydi, shundan 6-7 turi xavflidir.



Marokash, osiyo yoki to‘qay, voha yoki italiya prusi chigirtkalari shular jumlasidandir. Zararli chigirtkalar O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligiga XIX asrdan boshlab zarar yetkaza boshlagan. 1894 yili Jizzax viloyatida bu mitti zararkunandalarning tarqalishi sababli ularga qarshi 6 mln. aholi jalb etilgan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumanida aholisi chigirtkalarning keskin ko‘payib ketishi tufayli 1900 yildan 1904 yilgacha ekin ekilmagan. Shu vaqtidan beri chigirtkalar respublikamizda qishloq mahsulotlariga xavf solib keladi.

2007 yilda mutaxassislar tomonidan respublika bo‘yicha 671 ming hektar maydonda zararli va mahalliy chigirtkalarning tarqalishi bashorat qilingandi. Bu esa qishloq xo‘jaligiga katta talafot yetishi ehtimolini keltirib chiqaradi. Shuning uchun respublikamizning turli hududlarida chigirtka hujumiga qarshi chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, amalga tadbiq etilmoqda.

Zararli chigirtkalarning tabiiy kushandalari ham bor. Qushlar, ilonlar

va kaltakesaklar shular jumlasidandir. Ammo chigirtkalarning ko‘payish darajasi juda ham yuqori bo‘lganligi sababli ularga qarshi kimyoviy preparatlardan foydalaniladi. Bunga siraks, karate, regent fastak, nomolt, siperfos, adoniya va faskord kimyoviy preparatlarini misol qilib keltirish mumkin. Kimyoviy preparatlar chigirtkalar bilan zararlangan hududga AN-2 samolyotida, traktorlarda va qo‘l purkagichlar yordamida sepiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun: Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi qonuni: Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida.
3. O‘zbekiston Respublikasi qonuni: Qishloq xo‘jalik o‘simgiliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish to‘g‘risida.



## SURXONDARYODA TAQIRLI –O'TLOQI TUPROQLARNING AGROKIMYOVIY TAVSIFI VA MORFOLOGIK TUZULISHI

*Xoliqulova Sanamjon Baxtiyor qizi*

*Termiz davlat universiteti. Tabiiy fanlar fakulteti  
tuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi 3- kurs talabasi.*

Телефон:+99893-796-75-74

[normurodov.oibek@mail.ru](mailto:normurodov.oibek@mail.ru)

*Jurayeva Lola Chori qizi*

*Termiz davlat universiteti. Tabiiy fanlar fakulteti  
tuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi 3- kurs talabasi.*

Телефон:+99893-796-75-74

[normurodov.oibek@mail.ru](mailto:normurodov.oibek@mail.ru)

*Bo'riyev Elyor Musulmon o'g'li*

*Termiz davlat universiteti. Tabiiy fanlar fakulteti  
tuproqshunoslik ta'lim yo'nalishi 3- kurs talabasi.*

Телефон:+99893-796-75-74

[normurodov.oibek@mail.ru](mailto:normurodov.oibek@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqlada taqir-o'tloqi tuproqlar sharoitida Surxondaryo vohasida o'ziga xos genetik tuzilishga, xususiyatga ega bo'lgan tipik cho'l (sahro) tuproqlariga aloxida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** azot, fosfor, g'o'za o'suv davrida, go'ngi tuproqdag'i, taqir-o'tloqi tuproqlarida, agrotexnik va meliorativ tadbirlar.

Har xil turdag'i oddiy va murakkab (kompleks) fosforli o'g'itlarning taqir-o'tloqi tuproqqa yutilishi, tuproqning fosfor va nitrat shaklidagi azot rejimiga, o'simliklar tomonidan o'zlashtirilishiga, g'o'zaning o'sish rivojlanishiga, paxta hosildorligiga ta'sirini o'rganish maqsadida O'zbekiston paxtachilik ilmiy instituti (O'zPITI) ning Surxondaryo filiali eksperimental ba'zasida ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazildi.

Tajriba dalasi tuprog'inining agrokimyoiy ko'rsatkichlarini aniqlash uchun tajriba ko'yishdan oldin diagonal usulda dalaning 5 joyidan 0-30, 30-50, 50-70 va 70-100 sm chuqurliklardan tuproq namunalari olindi. Olingan namunalar soyada quritilib, maydalandi va 1 mm ko'zli elakdan o'tkazildi.

Tuproq namunalari laboratoriya da analiz qilindi. Tuproq tarkibidagi chirindi miqdori I.V.Tyurin usulida umumiy azot va fosfor I.M.Maltseva va L.P.Gritsenko usulida, nitrat shaklidagi azot Granvald Lyaju usulida, xarakatchan fosfor B.P.Machigin usulida analiz qilindi. Laboratoriya analizlari natijalariga ko'ra tajriba dalasi tuproqlari tarkibida chirindi miqdori 1,26% ni azot 0,092%ni, umumiy fosfor 0,163% ni, nitrat shaklidagi azot 12,4 mg/kg ni, harakatchan fosfor 20,2 mg/kg ni tashkil etdi.

Tuproqning 30-50 sm qatlamida chirindi (gumus) miqdori 0,88% ni, umumiy azot 0,081% ni, umumiy fosfor 0,120%ni, nitrat shaklidagi azot 8,7mg/kg ni, harakatchan fosfor 16,4 mg/kg ni tashkil etganligi aniqlandi. Dala tuprog'inining 50-70 sm chirindi (gumus) miqdori 0,512% ni, umumiy azot 0,062% ni, umumiy fosfor 0,105%ni, nitrat shaklidagi azot 3,8 mg/kg ni, harakatchan fosfor 8,2 mg/kg ekanligi aniqlandi.

Tuproqning 70-100 sm qatlamidagi ozuqa elementlari tahlil qilinganda chirindi (gusum) miqdori 0,480% ni, umumiy azot 0,048% ni, nitrat shaklidagi azot 1,4 mg/kg miqdorda borligi aniqlandi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ya'ni tuproqning 70-100 sm qatlamida umumiy va harakatchan fosfor elementi yo'qligi analiz natijasida aniqlandi. Dara tuprog'inining umumiy agrokimyoiy ko'rsatkichi keltirildi. Tuproq namunalarini olish, fenologik kuzatishlar va agrokimyoiy analizlar sobiq SoyuzNIXI hozirgi O'zPITI olimlari tomonidan 1977-2007 yillari ishlab chiqilgan usul (metodika) asosida o'tkazildi.

Tajriba bo'yicha olingan hosilning haqqoniyligini aniqlash maqsadida V.P.Peregudov tomonidan (1981) ishlab chiqilgan matematik usul bo'yicha dispersion matematik jihatdan tahlil qilindi.



Termiz tumani allyuvial yotqiziqlarida tashkil topgan, Surxondaryoning I-II qayir usti terrasalaridagi yangidan sug'oriladigan taqir-o'tloqi tuproqlardan iborat. Taqir-o'tloqi tuproqlar cho'l mintaqasi tekisliklarida rivojlangan og'ir qumloqli va loyli fraktsiyalardan tuzilgan.

Taqirli tuproqlar – Surxondaryo vohasida o'ziga xos genetik tuzilishga, xususiyatga ega bo'lgan tipik cho'l (sahro) tuproqlari tipini tashkil etadi. Bu tuproqlar Surxondaryo vohasining subaeral allyuvial hamda prolyuvial tekisliklarida mexanik tarkib jihatdan birmuncha og'ir va u yoki bu darajada sho'rangan yotqiziqlar ustida paydo bo'lgan. Birinchidan, taqirli tuproqlarning yuzasi tekis, har xil shakldagi yoriqlardan tashkil topgan qalinligi 1-5 sm, rangi qizg'ish ko'kimir tovlanuvchi katta kesakchali qatqaloqli qatlarning hosligi bilan ajralib turadi. Qatqaloq ostida esa qizg'ish – qo'ng'ir tangachasimon – kesakchali, uvalanuvchi qatqaloq osti qatlami bo'lib, bu odatda 6 – 10 sm qalinlikda bo'ladi. Bu qatlam qo'ng'ir – qizg'ish rangli oqish dog'lar bilan tovlangan, juda katta – kichik kesakchali qalinligi 20 – 25 sm bo'lgan qatlam bilan almashadi. Bu qatlarning ostida esa juda murakkab rangli (qizg'ish, qo'ng'ir, oqish nuqtalar, temir zanglari va qora – qo'ng'ir dog'lar bilan va h.) 80 – 100 sm qatlam bo'ladi.

Taqirli tuproqlarning melkozemli qatlami odatda 200 sm va undan ortiq bo'ladi. Eng harakterli morfologik tuzilishi yana shundan iboratki, barcha genetik qatlamlar o'ta og'ir mexanik tarkiblidir (og'ir qumoq, yengil). Mana shu sababli bu tuproqni o'zlashtirishda dastavval og'ir mexanik tarkibli yerkarda xos bo'lgan agrotexnik va meliorativ tadbirlarni qo'llashga to'g'ri keladi. Yana taqirli tuproqlar uchun xos bo'lgan ikkinchi morfologik belgi – ularning tabiiy zichlanganligidir. Birinchi ko'rinishda bu tuproqlar juda yaxshi agregatlangandek ko'rinaldi, biroq bu agregatlar faqatgina oddiy fizik ko'rinish bo'lib, ular aslida "o'ta soxta" aggregatlardir, chunki bu aggregatlar namlanganda o'z holatini o'zgartiradi va namlik ortgan sari bo'tqaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tojiev U., Namozov X., Nasretdinov Sh., Umarov K. O'zbekiston tuproqlari, Tashkent, 2004 y.
2. Malikov I. O'g'itlarni birga qo'shib solish // J. O'zbekiston qishloq xo'jaligi. 1981. №3. B.11

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(23-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2020

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000